

O'ZBEKISTON AGRAR FANI ХАБАРНОМАСИ

№ 6 (12) 2023



**ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ
УЗБЕКИСТАНА**

**BULLETIN OF THE AGRARIAN SCIENCE OF
UZBEKISTAN**



**LYIHA RAHBARI VA
TASHABBUSKORI:**
O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Toshkent davlat agrar universiteti

BOSH MUHARRIR:
Kamoliddin SULTONOV
**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI:**
Laziza G'OFUROVA
IJROCHI DIRECTOR:
Baxtiyor NURMATOV
MAS'UL KOTIB:
Ubaydullo RAHMONOV

DIZAYNER-SAHIFALOVCHI:
Denislam ALIMKULOV

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yhatiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25 fevralda 1548-sonli
guvohnoma bilan qayta ro'yxatga
olingan.

Jurnal 2000 yil aprel oyidan tashkil topgan
jurnal bir yilda 6 marta chop etiladi.

Bosishga ruxsat etildi: 07.12.2023.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}
Offset usulida cosildi. Biyurtma №
Adadi: 100 nusxa.

«Agrar fani xabarnomasi» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati,
Qibray tumani, Universitet ko'chasi,
2-uy

O'ZBEKİSTON AGRAR FANI XABARNOMASI

№ 6 (12) 2023

Ilmiy-amaliy jurnal

Tahrir hay'ati raisi:

Abdurahmonov Ibrohim
O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vaziri

Tahrir hay'ati a'zolari:

Sh.Teshaev	M.Mazirov
K.Sultonov	Sh.Nurmatov
S.Islamov	U.Norqulov
A.Abduvaskarov	E.Berdiev
F.Nurjonov	S.Sharipov
U.Djumaniyozov	T.Shamsiddinov
A.Xasanov	Y.Yuldashev
S.Yuldasheva	U.Ballasov
X.Bo'riev	E.Axmedov
I.Vasenov	K.Buxorov
R.Dustmuratov	S.Jo'raev
A.Qayumov	M.Odinaev
I.Karabaev	Ch.Begimqulov
S.Yunusov	B.Kamoliv
I.Rustamova	B.Qaxramonov
N.Rajabov	S.Isamuxamedov
M.Yuldashov	X.Irisov
A. Qo'chqorov	

Ta'sischi: Agrar fani xabarnomasi MCHJ

Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy,
ToshDAU.
Tel: (+99871) 260-44-95. Faks: 260-38-60.
e-mail: nurmatovbaxtiyor868@gmail.com
Maqolada keltirilgan fakt va raqamlar uchun
mualliflar javobgardir.

ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА

BULLETIN OF THE AGRARIAN SCIENCE OF UZBEKISTAN

Журнал 2000 йил апрель
ойида ташкил топган

Бир йилда 6 марта
чоп этилади

МУНДАРИЖА

Ўсимлиқшунослик

Усмонова Ш.У., Хайруллаев С.Ш. Стимуляторларнинг соя ўсимлигини ўсиши, ривожланиши ва хосилдорлигига таъсиридаги ўрни.....	6
Shermatov O.A. Innovatsion texnologiyalar asosida sholi yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	8
Абдуллаев Д.А. Махаллий шоли кўчнатини экишининг механизациялашган экиш схемаси.....	10
Асатиллаев Ф.Р. Бурчонинг ўсиши ва ривожланишига экиш усуслари ва ўғит мөъёларининг таъсири.....	14
Эгамов И.У. Кузги бугдой донининг сифат кўрсаткичларига экиш муддатларини таъсири.....	16
Pulatov F. Ekish muddatlarini va me'yorlarining yergyong'oq hosildorligi va moy miqdori ko'rsatkichlariiga ta'siri.....	18
Парниев Ф.Ф. Биоэкология развития возбудителей мучнисткой росы культурных лекарственных растений Ферганской долины.....	20
Aliyeva F. Soya navlarini barglarning rivojlanishiga ekish me'yorini ta'siri.....	25
Нематов У. Соя навларининг экиш муддатларига боғлик ҳолда кўчат қалинликлари.....	27

Пахтачилик

Абдулхақов Ф. Сувтежамкор томчилатиб сугориш усулининг тўзу ўсиб-ривожланиши ва пахта толасининг технологик-хўжалик кўрсаткичларига таъсири.....	30
Улжабоев А.А., Убайдуллаева Д. Турлича шўрланган майдонларда тўзу ҳосил шоҳлари бўғин ораликлари ҳамда ҳосил шоҳларидаги жойлашган кўсақларнинг бўғин ораликлари шаклланишидаги роли.....	32
Макамов А.Х., Норбеков Ж.К., Xусенов Н.Н., Нормаматов Н.С., Бойқобилов У.А., Шавқиев Ж.К., Буриев З.Т. Сувтанқислиги мухитида гўзанинг хромосомаси алмаштирилган рекомбинант инбрэд линияларини тола сифат кўрсаткичларининг таҳлили.....	34
Muhammadaliyev R.I., Makamov A.X., Xusenov N.N., Norbekov J.K., Normamatov I.S., Boyqobilov U.A., Shavkiyev J.Sh. Suv tanqisligi muhitida gossypium hirsutum l. turiga mansub g'oz'a genotiplarining morfologik tahlili.....	39
Боратов С.Б., Намазов Ш.Э., Тўхлиев М.Р., Абдукаримов Ш.Ш. Фўзанинг F ₃ дурагайларда тезпишарликнинг ирсийданиши ва ўзгарувчанлиги.....	44
Фозилов Л.О., Хайдаров М.М., Тешаев Ф.Ж., Нурматов Б.Ш. Янги дефолиант ва десикантларнинг пахтачиликада кўллашнинг самарадорлиги.....	45
Шамситдинов Ф.Р. Влияние стимуляторов альбит и гумми 20 на масличность семян и урожайность хлопчатника.....	47
Қўзибоев А.О., Пардаев Э.А., Ҳакимова М., Қобилов Н., Чоршанбиев Н.Э. Фўзанинг ўсиш даврида конволюцион нейрон тармогини кўллаш орқали самарадорликка эришиш ўйлари.....	49

Тупроқшунослик ва агрокимё

Жумабоев З.М. "Олтин ассп" маркали фосфорли ўғитларнинг кузги бугдойнинг биометрик кўрсаткичларига таъсири.....	54
Носиров И., Тешабоев А.М. Фосфорли ўғит турларининг кузги бугдой биометрик кўрсаткичларига таъсири.....	56
Иминов А.А., Ходдарова Д.Э., Мамадалиева М.Т., Одилжонова М.Ф. Соя уругларига экиш олдидан нитрагин билан ишлов берини ва минерал ўғитлар кўллашни чигитнинг дала шароитидаги унувчалигига таъсири.....	58
Kamilov B.S., Djabborov Sh.R. Turqoq oziq rejimi o'zgarishiga organik o'g'itlarning samarali ta'iri.....	60
Tojjeva B.B. Sug'oriladigan sho'rangan chul tuproqlarining sho'rلانish omillari.....	63
Usmonova M.I., Qodirova D.A. Sho'rangan tuproqlar holatini monitoring qilishda vegatasion indekslardan foydalanish.....	66
Qodirova D.A., Usmonova M.I. Sug'oriladigan yerlar holatini baholashda spektral indekslardan foydalanishning ahamiyati.....	70

Зоотехния ветеринария

Махмудова Х. И. Заанен эчкilarida озука рациони таркибини оптималлаштириш шароитида гематологик кўрсаткичлар таҳлили.....	75
Яхшибеков Г.Р., Муллабаев Н.Р., Камилов Б.Г. Возможность проведения искусственного воспроизведения африканского сома (<i>clarias gariepinus</i>) в садковых хозяйствах.....	78
Shakirov Q.J. Turli genotipli flegfix simmental zotli sigirlarni sut mahsuldarligi va laktatsiya faoliyatini shakillanishi.....	81
Омонкулов Д.Ю., Хужиева М.П. Қашкадарё вилоятининг текислик худудлари шароитида (кари тумани) vannamei креветкаларини ётишириши технологиясига оид.....	85

Қишлоқ ҳўжалигини механизациялаштириш ва электрификациялаштириш

Boqiyev A.A., Botirov A.N., Nuraliyeva N.A., Xoliqova S.S. Elektr traktorlardan foydalanishda xorij tajribalari va o'zbekiston qishloq xo'jaligida kombinatsiyalashgan elektr traktorlardani joriy etish.....	88
Турсунов Б.Н. Машина-трактор агрегатларини ёнилги ва мойлаш материаллари билан таъминлаш.....	91
Rayimjanov B.N. Mikroges qurilmasining optimal konstruksiyasini ishlab chiqish	94
Komiljonov J. Bir fazali asinxron motorlarda magnit maydon hosil bolishi.....	96
Safarov I.X. Avtomatlashtirish tizimlari ishonchliligin oshirish va texnik iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari.....	99
Mamajonov X. Asinxron motordagi isroflar va ularning foydalish koefitsiyentiga ta'siri.....	101
Саттиев Ю.Ш., Абдурашидова М.И. Чизиqli ишшоотларни куришда ер ишлари ҳажмини хисоблашни автомотлаштириш.....	103
Насритдинов А.А., Джўраев И.К. Лола пиёзини экиш усули ва уни амалга оширувчи агрегат.....	105
Ирисов Х.Д., Нурматов Б.Ш. Такомиллаштирилган пуркагичнинг тажриба-синов натижалари.....	107

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШТИРИШ ВА ЭЛЕКТРИФИКАЦИЯЛАШТИРИШ

О'О'К 636:631.3:621.

Boqiyev A.A., Botirov A.N., Nuraliyeva N.A., Xoliqova S.S.

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti

ELEKTR TRAKTORLARDAN FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBALARI VA O'ZBEKİSTON QISHLOQ XO'JALIGIDA KOMBİNATSIYALASHGAN ELEKTR TRAKTORLARDANI JORIY ETISH

Uzoq hududlarda markazlashtirilgan elektr ta'minoti tizimlarining yo'qligi yoki samarasizligi sababli qishloq xo'jaligida energiya samaradorligini ta'minlashning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan mobil texnik vositalarni elektr yuritmaga o'tkazish masalasi murakkablashmoqda. Maqolada elektr traktorlarini qishloq xo'jaligida qo'llashning xorijiy tajribalari muhokama qilinadi. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligida ishlaydigan elektr traktorlardan foydalanish tavsya etilib, ularning rusumlari taqdim etiladi, o'ziga xos xususiyatlari ta'kidlanadi. Elektr traktorlaridan foydalanishning afzalliklari tavsiflangan. Rivojlangan mamlakatlarning yuqoridaq muammolarni hal qilish borasidagi tajribalarini o'rganish asosida mobil qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishllovchi elektr stantsiyalari yordamida zaryadlanadigan mobil qishloq xo'jaligi texnika vositalarini joriy etish bo'yicha tegishli xulosalar chiqarilgan. Tahsil natijalariga ko'ra elektr traktorlarini O'zbekiston Respublikasi agrar sektoriga joriy etish bo'yicha takliflar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, elektr traktor, elektr motor, quvvat, akkumulyator, quyosh panellari, shamol generatori, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektr texnologiyalar, chastota o'zgartirgich, kontroller, inverter

Зарубежный опыт применения электротракторов и внедрения комбинированных электротракторов в самостоятельное сельское хозяйство

Из за отсутствия или неэффективности проводки систем централизованного электроснабжения на отдаленных территориях усложняется вопрос перевода на электрический привод мобильных технических средств, который является одним из актуальных вопросов обеспечения энергоэффективности в сельском хозяйстве. В статье рассмотрен зарубежный опыт применения электротракторов в сельском хозяйстве. В условиях Узбекистана рекомендовано использовать электрические тракторы, работающие в сельском хозяйстве, и представлены их модели, освещены особенности. Описаны преимущества использования электрических тракторов. На основе изучения опыта развитых стран в решении вышеприведенных проблем сделаны соответствующие выводы по переводу мобильной сельскохозяйственной техники на электрический привод, который заряжается с помощью мобильных электрических станций на основе ВИЭ. По результатам анализа представлены предложения по внедрению электрических тракторов в аграрный сектор Республики Узбекистан.

Ключевые слова: сельское хозяйство, электрический трактор, электродвигатель, мощность, аккумулятор, солнечные батареи, ветрогенератор, возобновляемые источники энергии, электрические технологии, преобразователь частоты, контроллер, инвертор

Foreign experiences in using electric tractors and introducing combined electric tractors in independent agriculture.

Due to the lack or inefficiency of wiring centralized power supply systems in remote areas, the issue of converting mobile technical equipment to electric drive, which is one of the pressing issues of ensuring energy efficiency in agriculture, becomes more complicated. The article discusses foreign experience in the use of electric tractors in agriculture. In the conditions of Uzbekistan, it is recommended to use electric tractors working in agriculture, and their models are presented and their features are highlighted. The advantages of using electric tractors are described. Based on a study of the experience of developed countries in solving the above problems, corresponding conclusions were drawn on the transfer of mobile agricultural machinery to an electric drive, which is charged using mobile power stations based on renewable energy sources. Based on the results of the analysis, proposals for the introduction of electric tractors into the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan are presented.

Keywords: agriculture, electric tractor, electric motor, power, battery, solar panels, wind generator, renewable energy sources, electrical technology, frequency converter, controller, inverter

Kirish

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

Qishloq xo'jaligida traktorlar shudgorlash, yerni haydash, ekin ekish, o'simliklarga ishllov berish, o'simliklarga vegetatsiya davrida suspenziya sephishe kabi vazifalar bajaradi. Dezil traktorlar dalada ishlaganda o'zidan zararli chiqindi gazlarni chiqaradi. Buning oqibatida etishtirilayotgan o'simliklarni zararlab salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Hozirgi kunda Respublikamizda eng istiqbolli yo'nalishlardan biri qishloq xo'jaligida ishlaydigan elektrtraktor texnologiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Dunyoda qishloq xo'jaligi uchun elektr traktorlar (*Xarkov John Deere, Tesla, Semi, Nikola*), kompaniyalarida ishlab chiqilmoqda. Elektr traktorlar agrosanoat majmuasining turli yo'nalishlari uchun innovatsion yechim hisoblanadi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlarini yanada samarali va arzonroq bajarilishiga yordam beradi. Respublikamizda bugungi rivojlanayotgan bir davrda. Maqolada dunyoning bir nechda davlatlari ishlab chiqilayotgan elektr traktorlarni tahliliy qilib ko'rib chiqamiz.

Ukrainaning Xarkov traktor zavodida 2015-yildan boshlab ikkita yengil elektr traktorlari XTZ-2511 Electro va XTZ-3512 Edison rusumlari ishlab chiqarilmoqda.

Zamonaviy standartlarga to'liq javob beradigan 0,6 klasdag'i XTZ-2511 Electro rusumi 27 ot kuchiga ega elektr motor bilan jihozlangan. (20 kWt) va 30 kWt quvvatga ega akkumulyator batareyasi o'rnatilgan. Bu bir zaryad olganda 6 soat ish bajara olishi isbotlangan. Ushbu traktorlar soatiga 26 km tezlikda yura oladi, og'irligi ikki tonnagacha bo'lgan tirkamalarni tashiy oladi.

XTZ-3512 Edison elektr traktori esa yangi model bo'lib, u 35 ot kuchi (quvvati 25,7 kWt) elektr dvigateli, sig'imi 42 kWt·soat bo'lgan lityum-ionli batareyasidan quvvatlandi. Ish bajarish vaqtida undagi akkumulyator quvvati uzlusiz 8 soatgacha, quvvat bilan ishlashda 4 soatgacha ishlashi isbotlangan. Ikki tonnagacha og'irlikdagi tirkamalarni tortib 40 km/soat tezlikda yura oladi. Energiya sarfi bir soatda 0,72 kWt·soat/ot kuchi. Batareyani to'liq zaryadlash 4 soatgacha davom etadi. Bir o'rindiqli issiqqlik va shovqindan himoyalangan kabina. Kabinada ventilyatsiya va isitgich o'rnatilgan. Ushbu toifadagi traktorlar asosan chorvachilik, bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarida qo'llaniladi.



1-rasm. XTZ-2511 Electro va XTZ-3512 Edison elektr traktorlari



1-jadval

HTZ-2511 Electro va XTZ-3512 Edison elektr traktorlarining texnik tavsiflari

Nº	Nomlanishi	XTZ-2511 Electro	XTZ-3512 Edison
1	Elektr traktor sinfi	0,6 sinf	0,6 sinf
2	Dvigatel turi	Uch fazali asinxron elektr motor	Yuqori quvvatli BLDC motor
3	Nominal quvvati	27 kWt	35 kWt
4	Batareya quvvati	42 kilovattli lityum-ion batareyalar	24 kWtli lityum-ion batareyalar
5	Maksimal tezlik	40 km/soat	40 km/soat
6	Uzunlik, kenglik, balandlik	3,28 m, 1,42 m, 2,49 m	3,28 m, 1,42 m, 2,49 m
7	Og'irligi	2,2 tonna	2 tonna
8	Ishga tushirish tizimi,	Elektr startyor	Elektr startyor
9	Uzatish qutisi	Mexanik-reversiv	Mexanik-reversiv

Bundan tashqari AQSHning "John Deere" kompaniyasi 2016-yil oxirida SESAM markali elektr traktorini ishlab chiqdi. Unda 2 ta 150 kWtli dvigatel va 174 ot kuchi doimiy quvvatni ta'minlaydigan to'g'ridan to'g'ri uzatmalar qutisi bilan jihozlangan. Maksimal 400 ot kuchi ega. Bir zaryaddagi batareyaning zaryadi 4 soatlik ish yoki taxminan 55km harakatlanish uchun etarli. Unda Batareyalarni to'liq zaryad qilish vaqtini taxminan 3 soatni tashkil qiladi.

AQShning Monarch Tractor kompaniyasi dunyodagi ilk aqlli elektr traktorni [yaratdi](#). Monax MK4 nomli traktorlar haydovchisiz harakatlanishini isbotladi. Ushbu traktor turli qishloq xo'jalik uskulalari bilan ishlay oladi, 55 kWt (70 ot kuchi) elektr motor bilan jihozlangan bo'lib, u bir xil quvvatli dizel dvigateldan ikki barobar katta aylantiruvchi momentga ega. Haydovchisiz elektr traktor qishloq xo'jaligida juda muhim quyidagi muammolarni hal qiladi:



2-rasm. SESAM elektr traktori

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI



3-rasm. Monarch MK4 elektr traktori

Monarch MK4 elektr traktorining afzalliklari

- ishchi kuchi yetishmovchiligi bor sharoitda fermerlar ishi to'xtab qolmaydi;
- akkumulyator batareyasiga 10 yillik kafolatga ega;
- boshqa traktorlarga nisbatan arzonroqqa tushadi;
- xavfsiz va ekologik toza;
- zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, atrofni

360 darajada kuzatish kamerasi mavjud;

- operator faqat texnikaning avtomatik ravishda bajaradigan vazifalarini dasturlaydi.

Traktoring umumiyligi o'lchamlari:

- uzunligi: 3,72 m,
- balandligi: 2,34 m,
- kengligi: 1,23 m,
- og'irligi 2,61 kg.

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan muammolarni O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasiga joriy qilish va xal etish maqsadida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti olimlari, tayanch doktorantlari tomonidan tegishli tadqiqotlar olib borilmoxda. Ularning dastlabki oraliq natijalaridan biri, bu qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlovchi mobil elektr stantsiyalari yordamida zaryadlanadigan kombinatsiyalashgan elektr traktori bo'lib, xozirda uning tajriba namunasi tayoranib, dastlabki dala sinovlari o'tkazildi.



4-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlovchi mobil elektr stantsiyalari yordamida zaryadlanadigan kombinatsiyalashgan elektr traktori

Xulosa

Yuqorida Ukrainianing XTZ-2511 Electro, XTZ-3512 Edison, AQSHning SESAM, Monarch MK4 elektr traktorlari ko'rib chiqdik. Ushbu elektr traktorlar qishloq xo'jaligidagi shudgorlash, yerni haydash, ekin ekish, o'simliklarga ishlov berish, o'simliklarga vegetatsiya davrida suspenziya sepish kabi bir qancha vazivalarni bajaradi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasiga ham bosqichma-bosqich elektr traktorlardan foydalanishga o'tish vaqtি keldi va bunga ichki imkoniyatlarimiz etarli. Qazib olinadigan yoqilg'ining kamayishi an'anaviy traktorlarning ishlash vaqtini kamayishiga olib keladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan elektr traktorlar eng yaxshi misoldir. Elektr traktori dizel traktorlariga nisbatan qo'shimcha xarajatlarni kamaytiradi natijada dehqonlar etishtirgan maxsulot narxini oshishini oldini olgan bo'lardi. Biz taklif etayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlovchi mobil elektr stantsiya va u

yordamida zaryadlanadigan kombinatsiyalashgan elektr traktorlari bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish uchun eng yaxshi echim hisoblanadi.

Mobil elektr stantsiya va elektr traktorlarga xizmat ko'rsatish ancha oson. Chunki, dizel dvigatelli traktorlarda ichki yonuv dvigateli svechasi, moy, filtr va boshqa o'nlab ehtiyyot qismlari mavjud. O'z navbatida, ularni birida nosozlik vujudga keladigan bo'lsa, traktordan foydalanish chegaralanib qoladi. Elektr traktorlarining yana bir afzalligi ishlayotgan vaqtida titrash va baland ovoz chiqarmaydi.

Shunday qilib qishloq xo'jaligida mobil elektr stantsiya va elektr traktorlarni joriy etilishi dolzarb bo'lib, bugungi kunda texnologik qurilmalarni rivojlanganligidan unumli foydalanilsa, yangi texnologiyalar yordamida yoqilg'i resurslarini tejash, atmosferaga zararli moddalarini chiqishini oldini olish, ekspluatatsiya harajatlarini kamaytirish, tuproqning zichlanish darajasini kamaytirishga erishilgan bo'lar edi.

Adabiyotlar

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

1. A. Bokiev, N. Nuralieva, S. Sultonov, A. Botirov, and U. Kholiknazarov, "Diversification of energy supply to the agricultural sector in the conditions of Uzbekistan," in *E3S Web of Conferences*, 2021, vol. 264. doi: 10.1051/e3sconf/202126404022.
2. A. Bokiev, S. Sultonov, N. Nuralieva, and A. Botirov, "Design of mobile electricity based on solar and garland micro hydro power plant for power supply in Namangan region mountain areas," in *E3S Web of Conferences*, 2023, vol. 365. doi: 10.1051/e3sconf/202336504003.
3. A. A. Boqiev, A. Botirov, S.A Toshmatov, Praspect for conversion to electrec dreve of agricultural machinery in Uzbekistan. International journal advanced research insceence, injineering and texnology 2020y 11 noyabr.
4. A. A. Boqiev, A. Botirov, S.A Toshmatov, Conversion of agricultural tractors to electric chain drive. Bulletin of agricultural science of Uzbekistan. storage/users/401/articles/8a4vomcXbXj8lm4mpUKjOj7xkrzjBQhzO38qnxx3.pdf
5. A. A. Boqiev, A. Botirov, Adaptive management of solar panels of the "Sun+Wind" mobile power plant. Contemporary problems of agriculture and water management XVI scientific and practical conference of young scientists, masters and talented students.
6. A. Rajabov, A. Bokiev, N. Nuralieva, and S. Sultonov, "Mobile power supply for drip irrigation systems," in *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 2020, vol. 883, no. 1. doi: 10.1088/1757-899X/883/1/012109.
7. Elektricheskoe v pole: v Germanii pokazali elektrotraktor [Elektronny resurs]. – Rejim dostupa: <https://autoreview.ru/articles/gruzoviki-i-avtobusy/germanii-pokazali-elektrotraktor> – Data dostupa: 14.04.2021
8. Perevod selskoxozyaystvennoy texniki na elektrotyagu mif, vygoda ili dan trendam? [Elektronny resurs]. – Rejim dostupa: <http://t25-tractor.ru/news/perevod-selskohozyajstvennoy-tehniki-na-elektrotyagu-mif-vygoda-ili-dan-trendam.html> – Data dostupa: 16.04.2021
9. Texnika i oborudovanie [Elektronny resurs]. – Rejim dostupa: <https://propozitsiya.com/elektrifikaciya-traktorov> – Data dostupa: 16.04.2021
4. Zaginaylov, V. I., Andreev S.A. Istoryya razvitiya, sostoyanie i perspektivы primeneniya elektromobilnoy texniki v polevodstve/ V.I. Zaginaylov, S.A. Andreev // Vestnik. – 2017. – № 6. – S. 15–21.
10. Elektricheskie traktora [Elektronny resurs]. – Rejim dostupa: <https://sadovij-pomoshnik.ru/traktory/elektricheskij-traktor.html> – Data dostupa: 20.04.2021

УДК:631.4.00.

Турсунов Б.Н

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

МАШИНА-ТРАКТОР АГРЕГАТЛАРИНИ ЁНИЛГИ ВА МОЙЛАШ МАТЕРИАЛЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ

Аннотация. Уибу мақолада замонавий машиналар ҳамда трактор агрегатларини ёилнинг долзарб ойларида ёнилги-мойлаши материаллари билан узлуксиз ва доимий равишда таъминлаб бориши, янги замонавий тизимини жорий қилиши, қишлоқ хўжалиги корхоналарида машина ва тракторларининг агрегатларини ёқилги-мойлаши материаллари билан таъминлашнинг турли схемаларини ишлаб чиқишига қаратилган.

Калит сўзлар: Ёқилги-мойлаши, нефт омбори, нефт база, кўчма ёқилги кўйши машинаси, трактор.

Abstract. This article focuses on continuous and continuous supply of modern machines and tractor units with fuel and lubricants in the relevant months of the year, implementation of a new modern system, development of various schemes of supplying machine and tractor units with fuel and lubricants in agricultural enterprises.

Key words: Refueling, oil storage, oil base, mobile fueling machine, tractor.

Аннотация. В данной статье речь идет о бесперебойном и бесперебойном снабжении современных машин и тракторных агрегатов горюче-смазочными материалами в соответствующие месяцы года, внедрении новой современной системы, разработке различных схем снабжения машинно-тракторных агрегатов горюче-смазочными материалами в сельскохозяйственных предприятиях.

Ключевые слова: Заправка, нефтехранилище, нефтебаза, передвижная заправочная машина, трактор.

Мустақил Ўзбекистонимизнинг қишлоқ хўжалик тизимини кейинги ўйларда ривоҷланиш концепциясида замонавий машина-трактор агрегатларини долзарб ойларда ёнилги-мойлаши материаллари билан узлуксиз таъминлаш учун янги тизим жорий килинди. Унинг асосий сабаби қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қиска муддатларда, юкори хосилдорлик ва уларнинг таннархини камайтириш хисобланади. Кейинги ўйларда қишлоқ хўжалигига кластер тизимининг кириб келиши, уларнинг ва фермер хўжаликларини ёнилги-мойлаши материаллари билан

таъминлашни марказлашган тизимини жорий этишни талаб қилмоқда.

Бу ёқилги-мойлаш материалларини марказлашган холда кластер ташкилотларида катта хажмдаги нефт омборларини ташкил этиш ва ёқилги-мойлаш материалларини асосий захирасини шу ерда саклаб, машина-трактор агрегати ишлаётган жойларга кўчма ёнилгини таркатиш машиналари орқали ташишини ташкил килинса. ёқилги-мойлаш материалларини долзарб ойларда узлуксиз етказиб бериш имконияти бўлади ва ишлаб